

O'ZBEK TILIDA HURMAT KATEGORIYASI VA UNING O'RGANILISH TARIXI

Abduraxmonova Irodaxon Shuhratjon qizi

irodaxonabdurahmonova9@gmail.com

Qo'qon davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tilida hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalarning tuzilishi, vazifasi, semantik xususiyatlari va qo'llanish jihatlarining tahlili hurmat ma'nosi lisoniy va nutqiy vositalarga ega bo'lgan ijtimoiy-ijobiy subyektiv ma'no ekanligini tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Kategoriya, grammatik kategoriya, leksik – semantik hodisa, component, kontekstual, adressativ, gonorativ.

Ma'lumki, grammatikada so'z shakli va ularning birikish qonuniyatlari o'rganiladi. Demak, grammatika o'zaro uzviy bog'langan morfologiya va sintaksisdan tashkil topadi va so'z uning tayanch unsuri sanaladi.

Shuningdek, an'anaviy tilshunoslikda grammatikaning tayanch unsuri sifatida kategoriya ham tushuniladi: egalik kategoriyasi, ko'plik kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi, kesimlilik kategoriyasi, modallik kategoriyasi kabi.

Kategoriya muayyan ma'no va shakllar tizimidan iborat bo'lib, grammatika tarkibiga kiradi va kengroq tushunchani bildiradi. Chunki, kategoriya keng ma'noda fonetik, leksik yoki semantik hodisalar tizimidan ham tashkil topishi mumkin. Kategoriya tushunchasi murakkab bo'lib, boshqa fan sohalarida ham uchraydi. Shunindek, kategoriyalar mohiyati jihatidan o'zaro farqlanadi, ifodalanish usuli, tasvir vositalariga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi. Masalan, kelishiklar tizimi sof Grammatik kategoriya sanaladi, unlilar tizimi – fonetik, so'z yasovchi affikslar tizimi – leksik-grammatik, hurmatlash, sizsirash hodisalari ijtimoiy-lisoniy kategoriya hisoblanadi.

Kishilik jamiyati mavjud ekan, insonlar o'rtasida turli xil ijtimoiy munosabatlar bo'ladi. Tabiiyki, bu munosabat, shubhasiz, ular tilida o'z ifodasini topadi. O'zbek tili ham bundan holi emas. Kishilar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar turli ko'rinishlarda tilning barcha sathlarida o'z ifoda shakllariga ega bo'ladi.

Ishda hurmat kategoriyasining lisoniy-nutqiy xususiyati, ya'ni uni ifodalovchi vositalarning tuzilishi, mazmuni, vazifasi va qo'llanishi jihatlarini bir tizimda

birlashtirilib, uzvli (komponent), matniy (kontekstual) tahlil usullaridan foydalanilgan holda tahlil etildi.

Hurmat ma'nosini ifodalovchi nolisoniy vositalar deb *tabassum bilan qarshi olish, yugurib kelib, tikka turib egilib ta'zim qilish, qo'lni ko'ksiga qo'yib salom berish* kabi hurmat xulqi (odobi) ko'rinishlari tushuniladi. Hurmat ma'nosini ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vositalar orqali hurmat ma'nosining ifodalanish darajasi qo'llanish doirasi bir xil bo'lmaydi [2;39]. Vositalarning tuzilishi, vazifasi, ma'no xususiyatlariga qarab, ularning hurmat kategoriyasidagi mavqei, hurmatni ifodalash darajasi aniqlanadi.

O'zbek tilida hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalarning tuzilishi, vazifasi, semantik xususiyatlari va qo'llanish jihatlarining tahlili hurmat ma'nosi lisoniy va nutqiy vositalarga ega bo'lgan ijtimoiy-ijobiy subyektiv ma'no ekanligini ko'rsatadi.

Til hodisalarining ijtimoiy omil bilan bog'liqligi ayrim tilshunos olimlar tomonidan asoslangan [5;176]. Keyinchalik bu hodisaga rus va o'zbek tilshunosligida ham e'tibor berilgan. Ijtimoiy omil deganda eng avvalo suhbatdoshlar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlar ko'zda tutiladi.

O'zbek tilida hurmat kategoriyasi ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida mavjud bo'lib, o'z leksik-grammatik vositalariga va ifodalanish usullariga egadir.

Shu o'rinda hurmat kategoriyasining o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, kategoriyani turlicha tushunish oqibatida bo'lsa kerak hurmat ma'nosi, sizsirash hodisasi ko'pchilik tillarda alohida kategoriya sifatida o'rganilmagan; hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalari esa boshqa unsurlar (masalan: modallikni ifodalovchi unsurlar) qatoriga qo'shib yuborilgan.

Yapon tilida hurmat kategoriyasi ikki xil ifodalanishi ta'kidlangan. Bu haqda V.M.Alpatovning quyidagi fikrlari ahamiyatlidir:

“Birinchisi “adressativ” kategoriya, bunda so'zlovchining suhbatdoshga, ikkinchisi “gonorativ” kategoriya so'zlovchining suhbatida so'z borayotgan o'zga shaxsga nisbatan ijobiy munosabatini ifodalaydi. Har qaysi kategoriya o'z ifodalanish shakli va tizimiga ega: addressativ kategoriya shakllari fe'l, predikativ sifat va bog'lama ko'rinishida; gonorativ kategoriya esa barcha mustaqil so'z turkumlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Addressativ kategoriyada addressativ va noaddressativ, gonorativ kategoriyada betaraflik va kamtarlik bildiruvchi shakllar o'zaro ziddiyat hosil qiladi. Betaraf shakllar ham hurmat, ham kamtarlik ifodalay oladi. Bu shakllarning maxsus qo'shimchasi yo'q” [1;13].

1944 yil A.G'ulomov o'zbek tilida hurmat ma'nosi ifodalanishi haqida birinchilardan bo'lib fikr yuritib, hurmat ma'nosi otning ko'plik qo'shimchasi bilan

ifodalanishi haqida batafsil to'xtalib o'tgan. O'tgan asrning 50-60-yillarida hurmat ma'nosining ayrim morfologik vositalar, jumladan egalik affikslari vositasida ifodalanishi mumkinligi haqida N.K.Dmitriyev, E.V.Sevortyan, A.N.Kononov, F.Abdullayev, K.Nazarov kabi olimlar ham o'z asarlarida yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tganlar. A.Hojiyev, S.Usmonov, R.Qo'g'urov, Y.Tojiyev, R.Ikromova kabi olimlar esa hurmat ma'nosini ifodalovchi ayrim sintetik vositalarni modal ma'no ifodalovchi vositalar qatorida sanab, "modal forma", "subyektiv baho formasi, "kichraytirish-erkalash vositalari" kabi atamalar bilan atashgan. to'g'rirog'i, hurmatni ifodalovchi morfologik vositalarni boshqa kategoriya vositalari bilan qorishiq holda o'rganishgan.

1973-yilda Sh.Rahmatullayev o'zbek tilshunosligiga "hurmat formasi" tushunchasini kiritdi: hurmat ifodalovchi -lar affiksining ko'plik bildiruvchi -lar affiksidan farqlanishini ta'kidlab ko'rsatdi[3;28-30]. Sh.Rahmatullayev fikricha, -lar omonim qo'shimcha sanaladi, lekin omonim qo'shimchalarning umumiyligi (modal ma'no ekanligi)ga emas, balki ular o'rtasidagi grammatik farqqa asoslanadi. Buni quyidagicha oddiy tasvirlash mumkin:

-lar I. Kitoblarim – bunda aynan ko'plik, hurmatga betaraflik mavjud.

-lar II. Otamlar – bunda III shaxs birlikka aynan hurmat, ko'plikka betaraflik mavjud.

Hurmatning ma'no xususiyati esa boshqa kesimlilik ma'nolari – shaxs, son, zamon, mayllardan farq qilishi ko'rsatiladi: hurmat II va III shaxs shakllari uchun mushtarak hisoblanadi. Otangiz (otanglar) – otaga hurmat, akangiz (akanglar) – akaga hurmat; onalari 90 bahorni ko'ribdilar – onaga hurmat; buvimlar keldilar – buviga hurmat (III shaxs birlikka hurmat) buvilarim kelishdi – III shaxs ko'plik – "2 ta buvi kelgan".

Hurmat kategoriyasi vositalarining qo'llanishida ijtimoiy omil muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy omilning asosiy belgisi nutq jarayoni, imkoniyati, sharoiti, vaziyati va vaqti kabilardir.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida hurmat ma'nosi – kategoriya, ya'ni kategoriya hosil qiluvchi ma'no deb qaralmoqda. 1990-yilda G'.Zikrillayev tomonidan hurmat dastlab fe'lga xos kategoriya sifatida o'rganilib, uning semantik-funksional xususiyati, ya'ni mazmuni, qo'llanishi va yasalishi tahlil qilinadi. G'.Zikrillayev "II va III shaxsda subyektning kommunikativ roli hamda miqdorini ko'rsatuvchi qo'shimcha ayni paytda hurmat ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. SHu paytgacha hurmat kategoriyasi ajratilmaganidan ular shaxs-son qo'shimchasi leb kelinardi" deb ta'kidlaydi [4;111]. Ammo G'.Zikrillayev hurmat

ma'nosini faqatgina fe'llarga xos shaxs, son kategoriyalari doirasida o'rganish bilan cheklangan.

1991-yilda hurmat ma'nosining olmoshlar doirasida ifodalanish xususiyatlari haqida B.Yusupov o'zining "*Местоимение в староузбекском литературном языке*" (XV-XVI вв.) monografiyasida qimmatli fikrlarni bayon etadi. Bundan tashqari, hurmat semasining olmoshlar bilan bog'liq jihatlari haqida 1969-yilda K.YE.Maytinskaya turli tizimdagi tillarda olmoshning qo'llanishi haqida fikr bildirgan. 1980-yilda M.S.Uzina esa fors tilida ayrim olmoshlarning hurmat ifodalashi haqida to'xtalgan. 2003-yilda yozilgan D.Hakimovning "Siz vas en olmoshlarining leksik-semantik xususiyatlari" maqolasi o'zbek tilida hurmat ma'nosining olmoshlar vositasida ifodalanishi haqidagi mavjud fikrlarni to'ldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алпатов В.М. Категория вежливости в современном японском языке. –М.: Наукаб 1973. –С.13.
2. Hojiyeva H. O'zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati: Filol.fanl.nomz...diss. –Samarqand, 2001. –B.39.
3. Rahmatullayev SH. Hurmat formasi // O'zbek tili va adabiyoti. –T., 1973. № -1.-B.28-30.
4. Zikrillayev G'. Fe'lning shaxs, son va hurmat kategoriyasi sistemasi. – T.: Fan, 1990. –B.111
5. Швейцер А.Д. Современная социоллингвистика. Теория, проблемы, методы. – М.: Наука, 1976. –С.176.